

**TIJORAT BANKLARIDA RISK BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH****Norboyeva Shahnoza Akbar qizi**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18393663>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Bank faoliyatida yuzaga keladigan kredit, likvidlik, bozor va operatsion risklar o'rganiladi. Ularning bank moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

*Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan Basel I, II va III standartlari doirasida risklarni baholash mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda tijorat banklari moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank ma'lumotlari va xorijiy manbalar asosida ma'lumotlar yig'ildi. Risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish usullari tahlil qilindi.*

**Kalit so'zlar:** bank risklari, kredit riski, likvidlik riski, bozor riski, operatsion risk, Basel standartlari, risk menejment, bank barqarorligi.

**IMPROVING THE RISK MANAGEMENT SYSTEM IN COMMERCIAL BANKS**

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of risk management systems in commercial banks. It examines key risks in banking, including credit, liquidity, market, and operational risks, and their impact on financial stability.

*The effectiveness of risk assessment mechanisms under Basel I, II, and III standards in international practice is analyzed. The study is based on financial statements of commercial banks, data from the Central Bank, and foreign scientific sources. Methods for risk identification, assessment, and monitoring are investigated.*

**Keywords:** bank risks, credit risk, liquidity risk, market risk, operational risk, Basel standards, risk management, bank stability.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ**

**Аннотация.** В данной статье проводится комплексный анализ теоретических и практических аспектов системы управления рисками в коммерческих банках.

*Рассматриваются основные виды рисков, включая кредитный, ликвидности, рыночный и операционный риск, а также их влияние на финансовую стабильность.*

*Анализируется эффективность механизмов оценки рисков в соответствии со стандартами Базель I, II и III в международной практике. Исследование основано на финансовой отчетности коммерческих банков, данных Центрального банка и зарубежных научных источниках. Изучены методы идентификации, оценки и мониторинга рисков.*

**Ключевые слова:** банковские риски, кредитный риск, ликвидности риск, рыночный риск, операционный риск, стандарты Базель, управление рисками, стабильность банка.

**Kirish**

Zamonaviy moliya tizimida tijorat banklari iqtisodiyotning muhim bo'g'ini sifatida faoliyat yuritadi. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan kreditlash, investitsiya va hisob-kitob operatsiyalari turli xil risklar bilan bog'liq bo'lib, ushbu risklarni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Global moliyaviy inqirozlar, bozor sharoitlarining tez o'zgarishi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bank risklarini yanada murakkablashtirmoqda.

Shu sababli tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimining mavjud holatini tahlil qilish hamda uni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun risk turlari, ularni baholash usullari va xalqaro tajribalar o'rganildi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Risk boshqaruvi masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Basel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Basel I, Basel II va Basel III standartlari bank risklarini tartibga solishning asosiy xalqaro me'yorlari hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda kapital yetarliligi, likvidlik va risklarni boshqarish mexanizmlari belgilangan [1].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan bank tizimida kredit risklarini kamaytirish, muammoli kreditlarni boshqarish va ichki nazorat tizimini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Xususan, risklarni diversifikatsiya qilish, kredit portfelini sifat jihatidan yaxshilash va stress-testlar joriy etish samarali usullar sifatida e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining kengayishi operatsion va kiber risklarni kuchaytirayotgani qayd etilgan. Demak, zamonaviy sharoitda risk boshqaruvi tizimini kompleks yondashuv asosida takomillashtirish zarur.

Tijorat banklarida riskni boshqarishning zamonaviy shakli – bu riskga asoslangan boshqaruv modeli (Risk-Based Management Model) dir. Ushbu modelda bankning har bir moliyaviy operatsiyasi, qaror qabul qilish jarayoni yoki investitsiya loyihasi risk og'irligi bo'yicha baholanadi [2].

Moliyaviy risklar — tijorat banklarining kutilmagan vaziyatda foydaning o'zgarishi, ololmasligi yoki tebranishidir. Xalqaro amaliyot tajribasidan ma'lumki, tijorat banklari faoliyatida moliyaviy risklar keng ko'lamli bo'lib, ular bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Moliyaviy risk" atamasi moliyalashtirishga oid turli risklarni, jumladan, korporativ defolt risklari bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni o'z ichiga olgan umumiy tushuncha sifatida ishlatiladi [3].

Bozor riski investitsiya riskining ikkita asosiy toifasini tashkil qiladi. Tizimli risk deb ham ataladigan bozor riskini diversifikatsiya qilish yo'li bilan bartaraf etib bo'lmaydi, lekin uni boshqa yo'llar bilan himoya qilish mumkin. Bozor riski manbalariga turg'unlik, siyosiy notinchliklar, foiz stavkalarining o'zgarishi, tabiiy ofatlar va terrorchilik xurujlari kiradi. Tizimli risk yoki bozor riski bir vaqtning o'zida butun bozorga ta'sir qiladi [4].

### **Tadqiqot usullari**

Mazkur tadqiqotda tahliliy, taqqoslama va statistik usullardan foydalanildi. Tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank ma'lumotlari va xalqaro bank standartlari asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qildi.

Risk turlarini aniqlash va ularni baholash uchun kredit portfeli tuzilmasi, likvidlik ko'rsatkichlari va kapital yetarliligi darajasi tahlil qilindi. Shuningdek, bank faoliyatida stress-test va reyting usullarining samaradorligi baholandi.

### **Natijalar**

Tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimining samaradorligini baholash bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur bo'limda tijorat banklarining kredit portfeli tuzilmasi, muammoli kreditlar ulushi, likvidlik ko'rsatkichlari va kapital yetarliligi darajasi asosida risklar tahlil qilinadi.

Tahlil jarayonida banklarda risk-menejment tizimini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari yoritiladi, dolzarb statistik ko'rsatkichlar asosida holat baholanadi, xalqaro tajriba o'rganiladi hamda ichki nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshirish va mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Avvalo, kredit riski bank faoliyatida eng muhim va keng tarqalgan risk turi hisoblanadi.

Kredit riskining yuqori darajasi qarz oluvchilarning majburiyatlarini bajarmasligi natijasida bank daromadlarining kamayishiga hamda kapital yetarliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushi o'rtacha 2–6 foiz oralig'ida tebranishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichning oshishi bank kredit portfelining sifat jihatidan yomonlashayotganidan dalolat beradi.

Muammoli kreditlar taqsimotini aniqlash maqsadida banklar kesimida kredit riski darajasi gistogramma usulida tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, banklarning aksariyat qismida muammoli kreditlar ulushi 3–5 foiz diapazonida jamlangan bo'lib, ayrim banklarda ushbu ko'rsatkich 6 foizdan yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat kredit siyosatini qayta ko'rib chiqish va qarz oluvchilarni baholash tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimi barqaror va jadal rivojlanish bosqichini namoyon etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga muvofiq, 2025 yil boshiga kelib bank tizimining jami aktivlari hajmi 769,3 trillion so'mdan oshdi, faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 36 taga yetdi. Bank sektorining umumiy kapitali 114 trillion so'mni, kredit portfeli 533,1 trillion so'mni, jalb etilgan mablag'lar hajmi esa 308,7 trillion so'mni tashkil etdi. Davlat banklarining tizim aktivlaridagi ulushi 60 foizdan ortiq bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, banklar kapitalizatsiya darajasi barqaror holatda saqlanib, sektor bo'yicha o'rtacha kapital yetarliligi 17,4 foizni tashkil etib, Markaziy bank tomonidan belgilangan 13 foizlik me'yordan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatmoqda [5].

Likvidlik riski bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Tahlil natijalariga ko'ra, banklarda joriy likvidlik ko'rsatkichlari Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yorlar doirasida bo'lsa-da, ayrim holatlarda aktivlar va majburiyatlar muddatlarining nomuvofiqligi likvidlik riskining kuchayishiga olib kelmoqda. Likvidlik riskini kamaytirish uchun yuqori likvid aktivlar ulushini oshirish va resurs bazasini diversifikatsiya qilish muhim hisoblanadi.

Bozor riski foiz stavkalari va valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida bank daromadlarining kamayishi bilan bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, foiz stavkalari o'zgaruvchan sharoitda banklarning sof foiz daromadlari sezilarli darajada tebranishi mumkin. Shu sababli foiz riskini boshqarishda aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, xedjing instrumentlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Operatsion risk bank ichki jarayonlaridagi nosozliklar, axborot texnologiyalari tizimidagi uzilishlar va inson omili bilan bog'liq xatolar natijasida yuzaga keladi. So'nggi yillarda raqamli bank xizmatlarining kengayishi operatsion va kiber risklarning oshishiga olib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirilgan ichki nazorat tizimlarini joriy etish va axborot xavfsizligini kuchaytirish operatsion risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kapital yetarliligi bank risklarini qoplash imkoniyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Basel III standartlariga muvofiq, banklar minimal kapital yetarliligi talablariga rioya qilishi lozim. Tahlil natijalari ko'rsatadiki, kapital yetarliligi darajasi yuqori bo'lgan banklarda moliyaviy barqarorlik nisbatan mustahkam bo'lib, risklarni yengish imkoniyatlari kengroqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarida asosiy risk turlari quyidagilardan iborat:

- Kredit riski – qarz oluvchilarning majburiyatlarini bajarmaslik ehtimoli;
- Likvidlik riski – bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi;
- Bozor riski – foiz stavkalari va valyuta kurslarining o'zgarishi bilan bog'liq yo'qotishlar;
- Operatsion riski – ichki jarayonlar va texnik nosozliklardan kelib chiqadigan zararlar [6].

Mazkur risklar bank faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va moliyaviy natijalarning o'zgaruvchanligiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois ularni aniqlash, baholash va doimiy monitoring qilish risk-menejment tizimining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Risklarni samarali boshqarish bank kapitalining yetarliligini saqlash hamda salbiy moliyaviy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish ushbu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biridir.



#### 1-rasm: Tijorat banklarida asosiy risk turlari

Ko'pgina banklarda risklarni baholashda klassik usullar ustun bo'lib, zamonaviy modellar yetarli darajada joriy etilmagan. Ichki nazorat tizimi va risk monitoringi ayrim holatlarda yetarli samaradorlikka ega emasligi aniqlandi.

Tijorat banki riskli operatsiyalarining qo'shimcha daromad olishga ta'siri quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Qd = BF \cdot (N/100)$$

Bu yerda: Qd - riskli operatsiyalarni amalga oshirish hisobiga olingan qo'shimcha daromad;

BF -bankning balans foydasi;

N- bank bo'yicha riskni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajasi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklari faoliyatiga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etilayotganligi banklar tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning sifati va sonini oshirish bilan birga, risklarning oshishiga ham sabab bo'lmoqda.

#### Muhokama

Natijalar shuni ko'rsatadiki, risk boshqaruvi tizimini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1. Risklarni erta aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish – kredit portfelini doimiy monitoring qilish;
2. Stress-test va ssenariy tahlillarni joriy etish – inqiroz holatlariga tayyorgarlik;
3. Raqamli texnologiyalarni qo'llash – avtomatlashtirilgan risk baholash tizimlari;
4. Xodimlar malakasini oshirish – risk menejerlarini tayyorlash.



### 1-rasm. Risklarni boshqarishni takomillashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari

Basel III standartlariga mos kapital va likvidlik talablarini bosqichma-bosqich joriy etish bank barqarorligini oshiradi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tahlillar tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Kredit portfelini sifat jihatidan yaxshilash, likvidlik va kapital ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish hamda zamonaviy risk baholash modellarini joriy etish bank tizimining barqarorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### Xulosa

Tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimi bank faoliyatining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning samarali tashkil etilishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank faoliyatida kredit, likvidlik, bozor va operatsion risklarning mavjudligi muqarrar bo'lib, ularni samarali boshqarish bank kapitali yetarliligi, daromadlilik darajasi va to'lovga qobiliyatlilikni saqlab qolishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Risklarni kompleks yondashuv asosida boshqarish, ya'ni ularni aniqlash, baholash, monitoring qilish va kamaytirish mexanizmlarini o'zaro uyg'un holda amalga oshirish bank faoliyatining barqarorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida olingan natijalar zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, avtomatlashtirilgan risk baholash tizimlaridan foydalanish va stress-test hamda ssenariy tahlillarni keng qo'llash bank risklarini erta aniqlash imkonini berishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, xalqaro bank amaliyotida qo'llanilayotgan Basel III standartlariga mos kapital va likvidlik talablarini bosqichma-bosqich joriy etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish hamda ichki nazorat va audit tizimlarini kuchaytirish bank risklarini samarali boshqarishning muhim yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, risk boshqaruvi tizimini izchil rivojlantirish banklarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy inqirozlarga chidamliligini kuchaytirish hamda bank tizimining barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida bank risklarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bank tizimi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: International regulatory framework for banks*.
2. Maxmudova, M., 2025. Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish usullarini takomillashtirish.
3. Tursunov, I., 2022. Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yoʻnalishlari.
4. Karimov A. Bank risklarini boshqarish. – Toshkent, 2022.
5. Umarova Z. O., Kuzmina S.N. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING OʻRNI // Экономикаи социум. 2024. No12-1 (127).
6. Mamatkulov, S., 2023. Improving the Risk Management System in Commercial Banks.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari.
8. Hull J. *Risk Management and Financial Institutions*.
9. Mishkin F. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*.
10. Isakov, Y., 2020. Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining taʼsiri va ilmiy-nazariy asoslari.